

**“O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI “TO‘Y” LEKSEMASI BILAN  
BOG‘LIQ LEKSIK BIRLIKLARNI LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI”  
(TO‘Y SO‘ZI BILAN BOG‘LIQ ETIKET SHAKLLARI)**

**Lola Uzakova**

Farg‘ona politexnika instituti, Farg‘ona davlat universiteti,  
ingliz tili o‘qituvchisi

Email: [lolauzakova82@gmail.com](mailto:lolauzakova82@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada to‘y leksemasi bilan bogliq o‘zbek va ingliz tillaridagi leksik birliklarining lingvokulturologik tadqiqi yoritilgan, “to‘y” so‘zi bilan bog‘liq leksik birliklarning bir qancha madaniy jihatlari o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada o‘zbek va ingliz madaniyatidagi bir xil leksimalarning ma‘nodagi o‘ziga xos farqlari ajratilgan.

**Tayanch so‘zlar:** to‘y, madaniyat, lug‘aviy birliklar, nutqiy etiket, leksema.

Nutqiy etiket vaziyatlari muomalaning tashqi sharoitlari va ichki holatlari bilan aloqador bo‘lib, ular barqaror va o‘zgaruvchan vaziyatlarga bo‘linadi. Nutqiy etiket vaziyatlarida ishlatiluvchi ma‘lum tilga xos birliklar umumlashib, asta-sekin qat‘iylashgan andozalarga aylanadi. Ma‘lum millat tiliga mansub bo‘lgan ana shu andozalar nutqiy etiket birliklarining mavzu guruhlarini tashkil qiladi. Masalan, o‘zbek va ingliz tillarida unashtirish –Matchmaking, hitob va e‘tiborni tortish – Overflowing, salutations, attentions and pampering, tanishish –Acquintance, toyga taklif qilish – Wedding invitation, to‘yda kutib olish – Salutations, duo qilish– Blessing, qutlash – Congratulations, minnatdorchilik bildirish – Accept gratitude kabi.

Ma‘lumki, millatning birinchi belgisi – til. Madaniyatning birinchi belgisi – odob. Odobning birinchi belgisi – bu salomlashish. Salomlashish har bir til, hatto har bir

lahzada o‘zgacha yangraydi. Biroq barchasining lug‘aviy ma‘nosi “salomatlik” so‘ziga ma‘nodosh hisoblanadi.

Shunday tillar borki, ularda to‘ydagi salomlashish so‘zlarining so‘zma-so‘z tarjimasida “tinch omonmisan?”, “uydagilaring yaxshimi”, “birorta yangiliklar bormi?”, “nima gaplar?”, “joning omonmi”, “eguliging bormi”, “qorning to‘qmi”, “tanangda quvvat bormi”, “oilang tinchmi”, “kulbang butmi”, “o‘lim yo‘qmi” kabi lug‘aviy ma‘nolar mavjud.

Bugungi kunda madaniyati, urf-odati jihatidan bir-biridan uzoq bo‘lgan xalqlarni o‘zaro qiyoslash, tadqiq etish dolzarb muammolardan biridir.

Darvoqe, quyidagi tadqiqotda ingliz va o‘zbek xalqlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan bo‘lgan salomlashish madaniyatlarini qiyoslash orqali ularning umumiy va farqli jihatlarini tahlil etish zarur.

Ingliz xalqlarida rasmiy doiralarda to‘y qachon o‘tkazilyatganiga qarab, “Good part of the day” (Xayrli kun), “Good evening” (Xayrli oqshom), deb salomlashish odatiy me‘yor hisoblanadi. Norasmiy doiralarda esa masalan, kunning vaqtiga qarab, ko‘proq yoshi ulug‘larda “Good evening”, “Day” (kun), “Evening” (oqshom), deb salomlashilsa, yoshlar o‘rtasida avvallari „Hello“ (salom) deb salomlashilgan bo‘lsa, bugungi kunda ingliz tilidagi salomlashish “Hi” (salom) odat tusiga kirgan. O‘zbek xalqida nafaqat rasmiy doiralarda balki norasmiy doiralarda ham “Assalому alaykum”, deb murojaat qilish odat tusiga kirgan.

Qo‘l berib salomlashish ingliz xalqida rasmiy doiralarda, deyarli, har kuni qo‘llanilsa, norasmiy doiralarda esa faqatgina birinchi bor tanishish vaqtida qo‘llaniladi. O‘zbek xalqida esa rasmiy doiralarda qo‘l berib salomlashilsa, norasmiy doiralarda ya‘ni do‘stlar, tanish-bilishlar va hamkasblar davrasida ba‘zan qo‘l berib, ba‘zan quchoqlashib ko‘rishishni kuzatish mumkin.

Ingliz xalqida ayol va erkaklar yonma-yon turgan holatda salomlashishning o‘ziga xos odatlari mavjud. Masalan, agar toyda rasmiy doiralarda yuqori lavozimli shaxs boshqa lavozimdagi shaxslar bilan salomlashayotganda, lavozimidan qat‘i nazar albatta birinchi ayol kishi bilan salomlashadi. Lekin yuqori lavozimli shaxs o‘zi

salomlashayotgan kishidan yosh bo‘lsa, u holatda ayol kishi bilan emas, hurmat yuzasidan yoshi ulug‘ kishi bilan salomlashadi.

O‘zbek xalqida esa bu holat biroz boshqacharoq. Musulmon xalqlarida erkak kishilar ulug‘langanligi sababli, birinchi bo‘lib, erkak kishi bilan salomlashiladi. Ayol kishilar bilan salomlashish vaziyatga bog‘liq bo‘lib, ba‘zan qo‘l berib, ba‘zan esa qo‘lini ko‘ksiga qo‘ygan holatda so‘rashiladi.

O‘zbek va ingliz xalqlarida to‘yda salomlashilayotganda, samimiy nigohlarning bir-biri bilan to‘qnashuvi ham, albatta, madaniyat belgisi hisoblanadi. Salomlashish vaqtida boshqa odam bilan gaplashib turish yoki nigohi boshqa odamda bo‘lish – bu yomon odat bo‘lib, salomlashayotgan kishiga nisbatan bepisandlik yoki hurmatsizlik belgisi hisoblanadi.

O‘zbek xalqida to‘ylarda ham salomlashishning o‘ziga xos me‘yorlari mavjud. Bo‘lim boshlig‘i, idora boshlig‘i o‘zlarining mijozlarini qabul qilayotganda yoki bemorni qabul qilayotgan vrachlar o‘rinlaridan turgan holatda, qo‘l berib salomlashib kutib oladilar. O‘rnidan turib, qo‘l berib salomlashmaslik mexmonga nisbatan hurmatsizlik hisoblanadi. Bunday joylarda berishi lozim bo‘lgan biron-bir sovga’ni yoki to‘yonani to‘y egalariga qo‘lga berish ham odob-axloq me‘yori hisoblanadi. Qo‘lga bermasdan, o‘tirgan joyida sovga’ni surib qo‘yish me‘yorning qo‘pol holatda buzilishi hisoblanadi. Ingliz xalqida esa ushbu holat biroz boshqacharoq. O‘z mexmonini qabul qilayotgan mezbon o‘rnidan turib, qo‘l berib salomlashishi talab qilinmaydi. Ammo ochiq chehra bilan unga e‘tiborli bo‘lishi shart. Tashrif buyurgan odam “Assalomu alaykum”, deb ichkariga kiradi, faqatgina o‘tirgan joyida yoki biroz qo‘zg‘alib, “Vaalaykum assalom, keling, marhamat o‘tiring, eshitaman” kabi jummlalar bilan kutib oladi. Har ikkala xalqda, ko‘pincha, iltifot qilish maqsadida ham uzr so‘rash

Nutqiy odat vaziyatlari so‘zlovchi va tinglovchining ishtiroki bilan sodir bo‘ladi. Faqat so‘zlovchilar sharoit, holatga ko‘ra, birliklarni tanlaydilar: murojaat shakli, “sen” yoki “siz” shakllari, turli imo- ishoralar kabi yordamida ifodalanadilar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Held, Georg. 2005. Politeness in linguistic research. In R. Watts, S. Ide & K. Ehlich (eds.), *Politeness in Language: Studies in its History, Theory and Practice*, 131-154. Berlin/New York:
2. Kasper, Gabriele. 1990. Linguistic Politeness: Current research issues. *Journal of Pragmatics* 14 (2). 193-218.
3. Mukhammad, K. K., & ogli Melikuziev, A. L. (2022, December). THE ESSENCE OF NONVERBAL COMMUNICATION. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 19, pp. 91-93).
4. Kerbrat-Orecchioni, Catherine. 2006. Politeness in small shops in France. *Journal of Politeness Research. Language, Behaviour, Culture* 2 (1). 79-103.
5. Lola Uzakova. 2022.”Linguistic-Cultural Study of Lexical Units Related to the Word "Wedding" in Uzbek and English Languages” *PINDUS Journal of Culture, Literature, and ELT (PJCLE) Academic journal*
5. Lacoff, Robin. 1973. The Logic of Politeness, or Minding Your P’s and Q’s. In *Papers from the 9th Regional Meeting, Chicago Linguistic Society*, 292-305. Chicago.

